TADBIRKORLIKNI RIVOJLANTIRISHDA MOTIVATSIYA OMILLARIDAN KENG FOYDALANISH

Meliboyeva Ma'mura O'rinboyevna.
Jizzax Sambhram universiteti "Biznes boshqaruv" kafedrasi assistenti
Norqulova Rayxona Sharof qizi.
Jizzax Sambhram universiteti "Biznes boshqaruv" ta'lim yo'nalishi talabasi
Donyorova Ruxshona Sherali qizi.
Jizzax Sambhram universiteti "Biznes boshqaruv" ta'lim yo'nalishi talabasi

Annotatsiya

Jahon mamlakatlari milliy iqtisodiyotlari tarkibining o'zgarishi, xususan, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sohalarining ustuvor ahamiyatini kasb etadi.

Kalit so'zlar: kichik biznes, tadbirkorlik, YAIM, motivatsiya, chakana savdo, daromad, Yangi O'zbekistonning taraqqiyot Strategiyasi.

Аннотация

Изменение структуры национальных экономик стран мира приобретает приоритетное значение, в частности, в сфере малого бизнеса и частного предпринимательства.

Ключевые слова: малый бизнес, предпринимательство, ВВП, мотивация, розничная торговля, доход, стратегия развития нового Узбекистана.

Annotation

Changes in the composition of the national economies of World countries, in particular, take on the priority importance of the fields of small business and private entrepreneurship.

Keywords: small business, entrepreneurship, GDP, motivation, retail, income, development strategy of the New Uzbekistan.

Bugungi kunda "rivojlangan mamlakatlarda kichik biznes va tadbirkorlik ish o'rinlarining 60-70 foizini tashkil qiladi. Binobarin, ular rivojlangan mamlakatlarda YAIMning 55% ni tashkil qiladi. Kichik biznesda ham barcha chakana savdo xodimlarining 39,8 foizi ishlaydi. Chakana savdo firmalaridan o'rtacha oylik daromad 22341 AQSH dollarni tashkil qiladi. Ushbu firmalarning o'rtacha yalpi marjasi 51% ni tashkil qiladi va egalari daromad olganlarida yirik mahalliy zanjirlarda qayta sarmoya kiritishga moyildir".[1.3-bet]

O'zbekiston Respublikasida ham tadbirkorlikning rivojiga katta e'tibor qaratilishi natijasida mazkur faoliyat turi milliy iqtisodiyotning yetakchi sektoriga aylangan. Bugungi kunda tadbirkorlikning hissasiga yalpi ichki mahsulotning yarmidan ko'pi, ish bilan bandlarning 80 % ga yaqini to'g'ri keladi. Shunday ekan, mamlakatning iqtisodiy rivojlanishi, oilalar daromadi va ularning farovonligi, yangi ish o'rinlarining tashkil etilishi aynan ushbu tadbirkorlik rivojiga bog'liq.

Yangi O'zbekistonning taraqqiyot Strategiyasida "Milliy iqtisodiyotni isloh qilish borasida tashqi savdo, soliq va moliya siyosatini liberallashtirish, tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash va xususiy mulk daxlsizligini kafolatlash, qishloq xo'jaligi mahsulotlarini chuqur qayta ishlashni tashkil etish hamda hududlarni jadal rivojlantirishni ta'minlash bo'yicha ta'sirchan choralar ko'rildi. Jahon miqyosidagi murakkab jarayonlarni va mamlakatimiz bosib o'tgan taraqqiyot natijalarini chuqur tahlil qilgan holda keyingi yillarda «Inson qadri uchun» tamoyili asosida xalqimizning farovonligini yanada oshirish, iqtisodiyot tarmoqlarini transformasiya qilish va tadbirkorlikni jadal rivojlantirish, inson huquqlari va manfaatlarini so'zsiz ta'minlash hamda faol fuqarolik jamiyatini shakllantirishga qaratilgan islohotlarning ustuvor yo'nalishlarini belgilangan".[2.39-bet]

Iqtisodiy islohotlar sharoitida rag'batlantirish tizimidan motivatsiya tizimiga o'tishning uddasidan chiqqan korxonalar yuqori raqobatbardoshlik darajasiga erishgan. Bu tushunchalarning o'zgarishigina emas, balki juda yuqori darajali iqtisodiy ko'rsatkichlaridan biridir: xodimlar motivlarining barcha rang-barangligi va o'ziga xosligi rag'batlantirish tizimi o'rnini egallagan mos keluvchi motivatsiya tizimida aks etadi.

Yangi O‘zbekistonda zamonaviy iqtisodiy jarayonlarning innovatsion yo‘naltirilganligi tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirish, mazkur faoliyatni davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash tizimi samaradorligini oshirish va ularning ilmiy-uslubiy va nazariy asoslarini tadqiq qilish asosida motivatsiya omillaridan foydalanish yo‘llarini takomillashtirish bo‘yicha ilmiy-uslubiy va amaliy asoslarini ishlab chiqish lozim bo‘lib, u mavzuning dolzarbligini belgilaydi.

Inson kamoloti indeksida uchta asosiy omillar - uzoq va sog‘lom hayot kechirish, bilim olish va munosib turmush darajasi hisobga olinadi, munosib turmush darajasi esa ko‘proq tadbirkorlik faoliyatining rivojlanishiga asoslanadi. Uning yechimi sifatida esa “Kambag‘allikni kamaytirish – bu aholida tadbirkorlik ruhini uyg‘otish, insonning ichki kuch-quvvati va salohiyatini to‘liq ro‘yobga chiqarish, yangi ish o‘rinlari yaratish bo‘yicha kompleks iqtisodiy va ijtimoiy siyosatni amalga oshirish demakdir. Shuning uchun Jahon banki, Birlashgan Millatlar Tashkilotining Taraqqiyot dasturi va boshqa xalqaro tashkilotlar bilan birga Kambag‘allikni kamaytirish dasturini ishlab chiqishni taklif etaman. Bu borada xalqaro me’yorlar asosida chuqur o‘rganishlar o‘tkazib, kambag‘allik tushunchasi, uni aniqlash mezonlari va baholash usullarini qamrab olgan yangi metodologiyani yaratish lozim”. [3.521-bet]

Shu o‘rinda tadbirkorlik tushunchasining iqtisodiy mohiyatiga e’tibor qaratsak, bu bozor iqtisodiyotining asosi, iqtisodiy o‘sish sur’atlarini, yalpi millliy mahsulot tarkibi va sifatini, aholining ish bilan bandligi va daromadi darajasini belgilaydigan yetakchi sektorlardan biri hisoblanadi. Uni rivojlantirish moslashuvchan aralash iqtisodiyotni shakllantirish umumjahon xususiyatiga ega. Shuning uchun butun dunyoda tadbirkorlikni har taraflama keng rivojlantirishga birinchi darajali e’tibor qaratiladi.

Tadbirkorlarning faolligi davlatning demokratlashtirilishi va milliy iqtisodiyot ochiqligi, ishbilarmonlik muhiti asosiy mezonlaridan biridir. Jahondagi ko‘pchilik rivojlangan va rivojlanayotgan mamlakatlar amaliyoti kichik biznes aholining ish bilan bandligini ta’minlash va daromadini ko‘paytirishning eng muhim vositasi ekanligidan dalolat beradi.

Hozirgi iqtisodiyotni modernizasiyalash sharoitida mazkur soha rivoji ish bilan bandlik va mehnat munosabatlarini takomillashtirishda alohida o‘rin egallaydi. So‘nggi yillarda tadbirkorlik faoliyatini qo‘llab-quvvatlash va rag‘batlantirish borasida amalga oshirilayotgan izchil tadbirlar, bu bo‘yicha qabul qilinayotgan qator dasturiy yo‘nalishlar mazkur sohaning rivojlanishiga olib kelmoqda.

Mamlakatimizda iqtisodiyotni liberallashtirish sharoitida keng ko‘lamli islohotlar bevosita tadbirkorlik rivoji bilan bog‘liq. Chunki kichik biznes yirik biznesga nisbatan bir qator raqobat ustunliklariga ega ekanligi bilan farqlanadi, xususan kichik biznesning moslashuvchanligi va ixchamligi biznesning muhim belgisi bo‘lib, zamonaviy biznes sharoitida muhim ahamiyat kasb etadi.

Tadbirkorlikni – kapitalni yo‘naltirishning yangi sohalarini izlash, mavjud mahsulotlar ishlab chiqarishni takomillashtirish va yangilarini yaratish, shaxsiy ustuvorlikni rivojlantirish, daromad olish uchun turli imkoniyatlardan samarali foydalanish deb ta’riflash mumkin. Shu bilan birga tadbirkorlik bozor uchun yangi mahsulot ishlab chiqarish, faoliyat sohasining o‘zgartirilishi yoki yangisi korxona yoki tarmoq barpo etilishida majburiy foydalanish deb tavsiflanadi. Tadbirkorlik mohiyatini idrok etishda tadbirkorlarning o‘zaro bog‘liq to‘rt faoliyatini alohida ko‘rsatgan amerikalik iqtisodchilar R.Mak Konnell va S.Yu. Bryularning quyidagi nuqtai nazarlari alohida ahamiyat kasb etadi:

– tadbirkor yer, mablag‘ va mehnat resurslarini mahsulot ishlab chiqarish hamda xizmat jarayoniga birlashtirish tashabbusini o‘z zimmasiga oladi;

– tadbirkor biznesni olib borish jarayonida asosiy qarorlarni ishlab chiqish va qabul qilishni, ya’ni biznesni rivojlantirish yo‘nalishlari, korxona faoliyati yo‘nalishini belgilovchi operasiyalarni o‘z zimmasiga oladi;

– tadbirkor yangi mahsulot (xizmat)larni ishlab chiqarishga intiluvchi, yangi ishlab chiqarish texnologiyalarini ishlab chiqaruvchi yoki biznesni tashkil qilishni va rivojlanishning yangi shakllarini olib kiruvchi tashabbuskor shaxsdir;

– tadbirkor tadbirkorlik faoliyatida yuzaga keladigan xavfni o‘z zimmasiga oladi, zero, tadbirkor uchun daromad olish kafolatlanmagan, sarf etilgan vaqt, harakat va qobiliyatlardan daromad olish barobarida zarar ko‘rish ham mumkin. Bunday hollarda tadbirkor nafaqat o‘zining o‘z vaqti, mehnati va ishbilarmonlik obro‘si bilan, balki sarf etilgan mablag‘ bilan ham tavakkal qiladi. Shunday qilib, ijodkorlik tadbirkorlik vazifalaridan biri bo‘lib, tadbirkorlik faoliyatida doim mavjud bo‘lishi shartdir.

Tadbirkorlikning rivojlanishida motivatsiya – tadbirkorlik faoliyatini samarali tashkil etish, uning rentabelligini oshirish va xizmat ko‘rsatish turlarini kengaytirishda xo‘jalik yuritishning an’anaviy usullaridan foydalangan holda, xodimlarning unumli mehnat qilishga undovchi rag‘bat omillaridan samarali foydalanish faoliyat turidir. Kichik biznes esa tadbirkorlik shakllaridan biri sifatida namoyon bo‘ladi hamda alohida tadbirkorni rag‘batlantirishning birmuncha oddiy va yanada samaraliroq tizimiga ega bo‘lib, qo‘shimcha urinish va harakatlarni rag‘batlantiradi va ishdagi kamchiliklarni bartaraf etadi.[5.74-bet]

Motivlashtirish strategiyasini tanlashda uchta yondoshuv mavjud:

1. Rag‘batlantirish va jazo strategiyasi, ya’ni, kishilar mukofot olish uchun ishlaydilar:

- kim ko‘p va yaxshi ishlasa, unga yaxshi hak to‘lanadi;
- kim undan ko‘p ishlasa shunchalik ko‘p haq to‘lanadi;
- kim sifatsiz ishlasa, u jazolanadi.

2. Ish orqali motivlashtirish: xodimga uni qoniqtiradigan ishni bersangiz bas, ijro etish sifati yuqori bo‘ladi.

3. Menejerlar bilan doimiy aloqada bo‘lish strategiyasi: bo‘ysunuvchilarbilan birga maqsadni aniklab olish, unga ijobiy aks aloqaga imkon berish, hattoki u to‘g‘ri yoki noto‘g‘ri, yoxud yanglishgan hollarda ham. Bu motivlashtirish modeli rahbar bilan xodim o‘rtasidagi munosabatni tahlil qilish va unga ustuvorlik berishga asoslanadi.

Xitoy tajribasida motivlashtirishning quyidagi usullari qo‘llaniladi: - pulni rag‘batlantirish va mukofotlash sifatida ishlatish; jazolash; raqobatni kuchaytirish; ish orqali motivlashtirish; yutuqni tan olish va taqdirlash; xodimlarni o‘qitish va yuksaltirish; salbiy ta’sirni cheklash va me’yorlash; guruh mehnatini mukofatlash va rag‘batlantirish; xodimlarni boshqarish ishlariga jalb etish va h.k.

Tadbirkorlarning faolligi davlatning demokratlashtirilishi va milliy iqtisodiyot ochiqligi, ishbilarmonlik muhiti asosiy mezonlaridan biridir. Jahondagi ko‘pchilik rivojlangan va rivojlanayotgan mamlakatlar amaliyoti kichik biznes aholining ish bilan bandligini ta’minlash va daromadini ko‘paytirishning eng muhim vositasi ekanligidan dalolat beradi.

Motivatsiya omillaridan foydalanish tadbirkorlikni rivojlantirishda ruhiy omil bo‘lib, shaxs faolligining manbai, sababi, dalili va har xil turli ehtimollaridir. Motivatsiya xodimlarni jonli mehnat faoliyatiga rag‘batlantiruvchi kuchli vosita hisoblanadi, demak motivlashtirish - bu kishilar faoliyatini ruhiy yo‘llar bilan maqsadga muvofiq yo‘naltirishdir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot Strategiyasi to‘g‘risidagi farmoni (Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 29.01.2022 y., 06/22/60/0082-son)
2. Mirziyoyev Sh. Tanqidiy tahlil, qat‘iy tartib intizom va shaxsiy javobgarlik har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo‘lishi kerak. T.: NMIU 2017. 39-bet.
3. Abduraxmonov Q.X. Mehnat iqtisodiyoti: nazariya va amaliyot. Darslik. -T.: O‘zR FA “Fan” nashriyoti, 2019. - 568 B.
4. Предпринимательство: Учебник для ВУЗов Под. Ред.В.Я.Гординкеля, Г.Б.Поляка, Швандара. –М.: ЮНИТИ, 1999.
5. G.Umirova. (2023). Tadbirkorlikni rivojlantirishda motivatsiya omillaridan foydalanishning zaruriyati. *Qo ‘qon universiteti xabarnomasi, 8,* 74-77.
6. Gulmira, U. (2023). Theoretical basis of management of the financial stability of the banking system. *International Journal of Advance Scientific Research, 3*(05), 126-130.
7. Gulmira, U. (2023). Theoretical basis of management of the financial stability of the banking system. *International Journal of Advance Scientific Research, 3*(05), 126-130.

8. Gulmira, U. (2023). The need to attract foreign investments to the national economy on a large scale. *Academia Science Repository*, *4*(5), 314-319.

9. Darvishaliyevna, N. D. (2023). Innovatsion rivojlanish sharoitida sanoat korxonalarining iqtisodiy salohiyatini boshqarish. *Boshqaruv va etika qoidalari onlayn ilmiy jurnali*, *3*(1), 62-66.

10. Мелибоева, М., & Мелибоев, А. (2024). Развитие управления экономической компетентностью промышленных предприятий в регионах. *Журнал универсальных научных исследований*, *2*(4), 418-425.

11. Meliboyeva, M., & Abdulla, M. (2024, June). Factors affecting the activities in industrial enterprises in the conditions of innovative development and their effects on the regional economy. In *International conference on interdisciplinary science* (Vol. 1, No. 6, pp. 26-32).

12. Meliboyeva, M. (2024). Modern Methods for Managing Industrial Enterprises. *Best journal of innovation in science, research and development*, *3*(4), 628-633.

13. Meliboyeva, M. M. O. (2024, February). Development of management of economic competence of industrial enterprises in the regions. In *international conference on interdisciplinary science/* (Vol. 1, No. 2, pp. 334-340). Center for Tech and Media Research, 110001, New Delhi, India.

14. Stat.uz

15. http://www.m-economy.ru